

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
TOSHKENT PEDIATRIYA TIBBIYOT INSTITUTI
OTORINOLARINGOLOGIYA, BOLALAR
OTORINOLARINGOLOGIYASI, BOLALAR STOMATOLOGIYASI
KAFEDRASI**

"TASDIQLAYMAN"

O'quv ishlari bo'yicha prorektor

Xaitov Q. N.

2023 yil 21 iyun



**OTORINOLARINGOLOGIYA
FANI BO'YICHA
O'QUV USLUBIY MAJMUA**

V kurs

Bilim soxasi 500000.....-Sog'liqni saqlash va ijtimoyi ta'minot

Ta'lim sohasi: 510000 - Sog'liqni saqlash

Ta'lim yo'nalishi: 5510100 – Davolash ishi
5111000- Kasb ta'limi (5510100 – Davolash ishi)

Umumiy o'quv soati – 196

Shu jumladan:

Ma'ruza – 12

Amaliyot – 96

Mustaqil ta'lim soati – 88

TOSHKENT – 2023

Otorinolaringologiya fani o'quv uslubiy majmuasi 5510100 – Davolash ishi, 5111000- Kasb ta'limi (5510100 – Davolash ishi)yo'nalishining 2018 (O'zR CCB 02.10.2018 yil 564-sonli buyrug'i) o'quv rejasi va o'quv dasturi bo'yicha tuzilgan

Tuzuvchilar:

Professor: Amonov Sh.E.,

Dotsentlar: Jabborova D.R.,Rasulova N.A., Ergashev J.D., Alimova D.D.

Assistentlar: Nurmuxamedova F.B., Yakubov M.M., Mamatova Sh.R., Salomov Q.M., Ismatova K.A., Egamberdiyeva Z.D.

Taqrizchilar

TTA Otorinolaringologiya kafedrası prof t.f.d. **Matkuliyeu X.M.**

ToshPMI Oftalmalogiya kafedrası mudiri t.f.d. **Buzrukou B.T.**

Fanning O'quv uslubiy majmuasi Toshkent Pediatriya Tibbiyot Instituti Markaziy uslubiy kengashining 2023 yil "23" iyun №10 son qarori bilan tasdiqlandi.

Kafedra mudiri: _____ **prof. Amonov Sh.E.**

I Pediatriya fakulteti dekani: _____ **Raxmatullayev A.A.**

O'quv uslubiy bo'lim boshlig'i _____ **Isaxanova N.X.**

2. Ma'ruza mashg'ulotlari

№	Ma'ruzalar mavzulari	Dars soatlari hajmi
1.	Kirish: Burunning o'tkir va surunkali kasalliklari	2
2.	Burun yondosh bo'shliqlarini kasalliklari	2
3.	Halqumni o'tkir va surunkali kasalliklari	2
4.	Quloqning o'tkir va surunkali kasalliklari	2
5.	Quloqning yiringsiz kasalliklari. Labirintitlar	2
6.	Hiqildoqni o'tkir va surunkali kasalliklari	2
	Jami:	12

3. Amaliy mashg'ulotlar

№	Amaliy mashg'ulotlar mavzulari	Dars soatlari hajmi
1.	Kirish. Burun va burun yondosh bo'shliqlarining kliniko anatomik va fiziologik o'ziga xosligi, zamonaviy tekshirish usullari.	5
2.	Burunning o'tkir kasalliklari, zamonaviy tekshirish usullari, davolash prinsiplari, shoshilinch xolatlarda birinchi yordam ko'rsatish, profilaktika, reabilitatsiya va dispanserizatsiyasi.	5
3.	Burunning surunkali kasalliklari, zamonaviy tekshirish usullari, davolash prinsiplari, shoshilinch xolatlarda birinchi yordam ko'rsatish, profilaktika, reabilitatsiya va dispanserizatsiyasi.	5
4.	Sinusitlar va burun o'smalari, zamonaviy tekshirish usullari, davolash prinsiplari, shoshilinch xolatlarda birinchi yordam ko'rsatish, profilaktika, reabilitatsiya va dispanserizatsiyasi.	5
5.	Halqumni kliniko anatomik va fiziologik o'ziga xosligi, zamonaviy tekshirish usullari.	5
6.	Halqumning o'tkir kasalliklari, zamonaviy tekshirish usullari, davolash prinsiplari, shoshilinch xolatlarda birinchi yordam ko'rsatish, profilaktika, reabilitatsiya va dispanserizatsiyasi.	5
7.	Halqumning surunkali kasalliklari va o'smalari, zamonaviy tekshirish usullari, davolash prinsiplari, shoshilinch xolatlarda birinchi yordam ko'rsatish, profilaktika, reabilitatsiya va dispanserizatsiyasi.	5
8.	O'tkir va surunkali tonzilolitlar, zamonaviy tekshirish usullari, davolash prinsiplari, shoshilinch xolatlarda birinchi yordam ko'rsatish, profilaktika, reabilitatsiya va dispanserizatsiyasi.	5
9.	Quloqni kliniko anatomik va fiziologik o'ziga xosligi, zamonaviy tekshirish usullari.	5
10.	Tashqi quloqni kasalliklari, zamonaviy tekshirish usullari, davolash prinsiplari, shoshilinch xolatlarda birinchi yordam ko'rsatish, profilaktika, reabilitatsiya va dispanserizatsiyasi.	5
11.	O'rta quloq kasalliklari, zamonaviy tekshirish usullari, davolash prinsiplari, shoshilinch xolatlarda birinchi yordam ko'rsatish, profilaktika, reabilitatsiya va dispanserizatsiyasi. o'rganish	5
12.	Labirintitlarni va quloq o'smalari, zamonaviy tekshirish usullari, davolash prinsiplari, shoshilinch xolatlarda birinchi yordam ko'rsatish, profilaktika, reabilitatsiya va dispanserizatsiyasi.	5

13.	Quloqning yiringsiz kasalliklari, zamonaviy tekshirish usullari, davolash prinsiplari, shoshilinch xolatlarda birinchi yordam ko'rsatish, profilaktika, reabilitatsiya va dispanserizatsiyasi.	6
14.	Eshitish pastligi, zamonaviy tekshirish usullari, davolash prinsiplari, shoshilinch xolatlarda birinchi yordam ko'rsatish, profilaktika, reabilitatsiya va dispanserizatsiyasi.	6
15.	Karlik, zamonaviy tekshirish usullari, davolash prinsiplari, shoshilinch xolatlarda birinchi yordam ko'rsatish, profilaktika, reabilitatsiya va dispanserizatsiyasi.	6
16.	Hiqildoqni kliniko anatomik va fiziologik o'ziga xosligi, zamonaviy tekshirish usullari.	6
17.	Hiqildoqning o'tkir kasalliklari, zamonaviy tekshirish usullari, davolash prinsiplari, shoshilinch xolatlarda birinchi yordam ko'rsatish, profilaktika.	6
18.	Hiqildoqning surunkali kasalliklari, zamonaviy tekshirish usullari, davolash prinsiplari, shoshilinch xolatlarda birinchi yordam ko'rsatish, profilaktika, reabilitatsiya va dispanserizatsiyasi.	6
	Jami:	96

Amaliy mashg'ulotlar xronokartasi

Vaqt	Bajariladigan ishlar tarkibi
8.30 -9.15	Ma'ruza
9.15-9.20	Tanaffus
9.20-10.05	Uy vazifasini tekshirish. Faol savol-javob.
10.05-10.15	Tanaffus
10.15- 10.20	Talabalarga mashg'ulotni maqsad va vazifalarini tushuntirish
10.20- 11.50	Uy vazifasini tekshirish. Faol savol-javob.
11.50-12.30	Tanaffus
12.30-13.15	Vaziyatli masalalarni yechish, grafik organayzerlar
13.15-13.20	Tanaffus
13.20-14.05	Bemorlarni kuratsiya qilish
14.05-14.10	Tanaffus
14.10-14.30	Mashg'ulot rezyumesi, amaliy mashg'ulotni baholash va xujjatlarni to'ldirish (o'quv jurnali, konspektlar, o'zlashtirish va davomat varaqasi). Talabalarni yangi mavzu rejasi, maqsadlari, vazifalari bilan tanishtirish.
14.30-	Pedagogning keyingi mashg'ulotga tayyorgarligi

Amaliy ko'nikmalar ro'yxati

1. Faringoskopiya (epi, mezo, gipo)
2. Rinoskopiya
3. Otoskopiya
4. Laringoskopiya
5. Eshitishni kamerton yordamida tekshirish (Akumetriya)
6. Ogiz va burundan surtma olish

7. Quloqni yuvish
8. Burun va quloqdan yot jismni olib tashlash
9. Limotrop dori yuborish
10. Halqumni artish
11. Transtimpanal quloqqa dori yuborish
12. Lakunalarni yuvish

Amaliy mashg'ulot №1. Kirish. Burun va burun yondosh bushliqlarining klinik anatomik va fiziologik o'ziga xosligi, zamonaviy tekshirish usullari.

Mashg'ulot maqsadi va vazifalari:

Kirish. Burun va burun yondosh bo'shliqlarining klinik anatomik va fiziologik o'ziga xosligi, zamonaviy tekshirish usullari.

O'quv jarayonini natijasi:

Talaba bilishi zarur:

1. Burun va burun old bushliqlari klinik anatomiyasini
2. Burun va burun old bushliqlari klinik fiziologiyasini
3. Burun va burun old bushliqlarini zamonaviy tekshirish usullari.

Talaba bajara olishi shart:

1. Maqsadga yo'naltirilgan anamnez yig'ish va interpretatsiya.
2. Burunning o'tkir kasalliklari bilan kasallangan bemorlarni Rn-logik va instrumental tekshirish usullarini o'tkazishni.
3. Mustaqil ravishda bemorlarda maslaxatlar olib borishni va qadamma-qadam oldingi rinoskopiyani
4. Laborator va instrumental tekshirish usullariga tayangan xolda kasallikni interpretatsiya qilish
5. O'tkir rinit, burun tusig'i qiyshayishi va burun chipqonida kasallik asoratlarini oldini olish va profilaktik choralarini ko'rish;

Vaqt	Mavzu, o'qitish uslubi	Mazmuni	Materiallar
8.30-9.00	Talabalar bilan tanishuv. O'tilgan darsni qaytarish	Interaktiv usul «Miyaga xujum».	Fayl "Qaytarish"
9.00-9.30	Guruh bilan klinik vaziyatni muhokama qilish yoki vaziyatli masala yechish	Bemor onasi bola burnidan nafas olishiga qiynalishiga, ko'karib keta boshlaganiga. Bu belgilar bemor onasi tug'ilganidan boshlangan deb xisoblaydi. Ko'ruvda: tashqi burun o'zgarishlar yo'q. Yuz va tana terisi odatdagi rangda, biroz namlangan. Tomir urishi daqiqasiga 152 marta. Ovozi manqalangan. Burun bo'shlig'i shilliq pardasi och pushti rangda, shishmagan. Burun yo'llari toza. Paxta tolasi burun oldiga olib kelganda chap tomonida paxta tolasining harakati kuzatilmaydi. Burun oldi bo'shliqlari sohasi barmoq bola bezovtalanmaydi. Burun orqali nafas olish chap tomonda buzilgan. Muhokama uchun savollar: Shikoyatlari, anamnez ma'lumotlari va fizikal ko'ruv natijalarini hisobga	Flipchart Fayl - « Klinik vaziyat»

Vaqt	Mavzu, o'qitish uslubi	Mazmuni	Materiallar
		olgan holda bemorga tashxis qo'ying.	
9.30-10.00	Prezentatsiya bolalarda sinusitlar.	Bolalarda tug'ilganda qaysi burun yondosh bo'shliqlari bo'lmasligi, burun yo'llari qanaqa rivojlanganligi. Variantlar aytilgan zaxoti talabalar o'qituvchi bilan variantlarni analiz qilib to'g'ri javobni aytishadi. Masalan yuqoridagi variantlardan to'g'rilar	PP prezentatsiya (CD disk) Otolaringologiya, informatiya manbayi –Palchun 28 bet,
10.00-11.00	Poliklinikada yoki klinikada bemorlarni shifokor yoki o'qituvchi nazoratida ko'rish	LOR klinikasida yoki poliklinikada O'qituvchi yordamida tematik bemorlarni kuratsiyasi. Talabani anamnez yig'ishi, klinik tekshirishlar olib Otorinolarinolog shifokorining diagnoz quyishi, davolashni belgilashi va guruh bilan birgalikda baxolash.	
11.00-11.50	Amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirish. 1. Rinoskopiya va burunning anatomiya va fiziologiyasini o'ziga xosligini muhokama qilish. 2. Burun yondosh bo'shliqlarini tekshirish	O'qituvchi amaliy ko'nikmani talabalarga qilib ko'rsatadi. Talabalarga amaliy ko'nikma bajarish uchun vaqt beradi. HAR BIR talaba amaliy ko'nikmani o'zi BEMALOL bajarishiga ahamiyat bering. Oldingi va orqa rinoskopiyanı bajarish va burun yondosh bo'shliqlari anatomik va fiziologik o'ziga xosligini muhokama qilish. Burun yondosh bo'shliqlarini tekshirish. Amaliy ko'nikmani o'rgatishni maqsadi talabani ko'nikmani avtomatik bajarishidir.	
11.50-12.50	Tanaffus		
12.50-13.30	Guruh bilan klinik vaziyatni muhokama qilishni davom ettirish.	Talabalarning «Burun tug'ma nuqsonlari bor bemorlarga (xaona atreziyasi, bo'ri tanglay, quyuncha lab va h.k.) berayotgan tibbiy tavsiyalarini bosqichma-bosqich baholash mezonlari.	Doska oldida taktika bilan muhokama qilish.
13.30-14.00	Praktika	MSKT, KT, MRT, 3D rentgen va Rentgen snimkalarini Interpretatsiya qilish.	Amaliyot fayli
14.00 – 14.50	Guruhda ishlash	Klinik fikirlash varog'ini to'ldirish, kasallik belgilarini differensial-diagnostika qilish, xaona atreziyasi, bo'ri tanglay, quyuncha lab	Sinusit dif diagnostika fayli
14.50-15.20	Mashg'ulotni yakunlash	O'tilgan darsni muhokama qilish. Har bir talaba "Bugun men qanday yangilikni bildim" degan savolga javob beradi.	

Joriy baholash bo'yicha talabalar bilimni baholash mezonlari (JB)

Baholash	Joriy amaliy mashg'ulotni baholash mezonlari
-----------------	---

5 «A'lo»	Burunning klinik anatomiyasi, fiziologiyasini biladi. Burun bolalarda uziga xosligini va tekshirish metodlarini biladi, TKFVBVni berilgan patologiya (kasallik klinikasi, diagnostika va davo standarti, 6-7ta retsep yozish bilan to'ldira oladi. Amaliy kunikmalarni bajara oladi. Vaziyatli masalalarni to'g'ri yecha oladi. Berilgan mavzuni mustaqil o'zlashtiradi. Rasmlar bilan 10ta baddan iborat konspekti bor Bemorlarini kuratsiya qiladi va kasallik tarixini yozadi, tashxis va davoga asoslanib, sxema bo'yicha himoya qiladi.
4 «Yaxshi»	Burunning klinik anatomiyasi, fiziologiyasini biladi. Burun bolalarda o'ziga xosligini va tekshirish metodlarini biladi, TKFVBVni berilgan patologiya (kasallik klinikasi, diagnostika va davo standarti, 6-7ta retsep yozish bilan to'ldira oladi. Amaliy kunikmalarni bajara oladi. Vaziyatli masalalarni to'g'ri yecha oladi. Berilgan mavzuni mustaqil o'zlashtiradi. Rasmlar bilan 6-7 ta baddan iborat konspekti bor Bemorlarini kuratsiya qiladi va kasallik tarixini yozadi, tashxis va davoga asoslanib, sxema bo'yicha himoya qiladi.
3 «Qoniqarli»	Burunning fiziologiyasini biladi. TKFVBVni berilgan patologiya (kasallik klinikasi, diagnostika va davo standarti, 2-3ta retsep yozish) bilan to'ldira oladi. Amaliy kunikmalarni bajara oladi. Vaziyatli masalalarni xatolar bilan yecha oladi. Berilgan mavzuni mustaqil o'zlashtiradi. Rasmlar bilan 2-3ta baddan iborat konspekti bor Bemorlarini kuratsiya qiladi va kasallik tarixini yozadi.
2 «Qoniqsiz»	Burunning fiziologiyasini bilmaydi yoki kam biladi. TKFVBVni ushbu patologiya bilan to'ldira olmaydi. Amaliy ko'nikmalarni bajara olmaydi. Vaziyatli masalalarni yecha olmaydi. Berilgan mavzuni mustaqil o'zlashtira olmaydi. Konspekt 1-2 bandi yoki yo'q, rasmlar ham yo'q. Bemorni tashxisoti va davolashga asoslanib kuratsiya qila olmaydi va kasallik tarixini yozolmaydi.

Amaliy mashg'ulot №2 Kirish. Burunning o'tkir kasalliklari, bolalarda o'ziga xos kechishi, zamonaviy tekshirish usullari, davolash prinsiplari, shoshilinch holatlarda birinchi yordam ko'rsatish, profilaktika, reabilitatsiya va dispanserizatsiyasi

Mashg'ulot maqsadi va vazifalari:

Talabalarga burunning o'tkir kasalliklarida diagnostik tekshirish usullarini, davolash prinsiplarini, va shoshilinch holatlarda birinchi yordam ko'rsatish, reabilitatsiya va profilaktika choralar bilimlarini o'qitish.

O'quv jarayonini natijasi: Talaba bilishi zarur:

1. Burun va burun old bushliqlari klinik anatomiyasini, fiziologiyasini, bolalardagi o'ziga xosligini.
2. O'tkir rinitlarning etiologiyasi, patogenezi, tasnifini.
3. O'tkir rinitlarning klinik belgilarini
4. O'tkir rinitlarning tekshirish usullarini va umumiy konservativ davolash prinsiplarini
5. Burun chipqoni va burun to'sig'i qiyshayishi etiologiyasi, klinik belgilarini, diagnostikasi, dif. diagnostikasi, asoratlarini va davolash prinsiplarini.

? Talaba bajara olishi shart:

1. Maqsadga yo'naltirilgan anamnez yig'ish va interpretatsiya.
2. Burunning o'tkir kasalliklari bilan kasallangan bemorlarni Rn-logik va instrumental tekshirish usullarini o'tkazishni.

3. Mustaqil ravishda bemorlarda maslaxatlar olib borishni va qadamma-kadam oldingi rinoskopiya
4. Laborator va instrumental tekshirish usullariga tayangan holda kasallikni interpretatsiya qilish
5. O'tkir rinit, burun to'sig'i qiyshayishi va burun chipqonida kasallik asoratlarini oldini olish va profilaktik choralarini kurish;

Vaqt	Mavzu, o'qitish uslubi	Mazmuni	Materiallar
8.30-9.00	Talabalar bilan tanishuv. O'tilgan darsni qaytarish	Interaktiv usul «Kuchsiz halqa». Mavzu: «Burun va burun yondosh bo'shliqlari klinik anatomiyasi, fiziologiyasi va tekshirish usullari ».	Fayl "Qaytarish"
9.00-9.30	Guruh bilan klinik vaziyatni muxokama yoki vaziyatli masala yechish	Bemor tanaharoratini 37,3 C ⁰ ko'tarilishiga, aksirishiga, burun bitishiga, burundan ajralma kelishiga, tomoq qurishiga va ko'zidan yosh oqishiga shikoyat qiladi. Bu belgilar bemor oyog'idan zah o'tkazgandan 3 kun o'tib paydo bo'ldi. Ko'ruvda: tashqi burun qanotlari ustida biroz qizarish bor. Yuz va tana terisi odatdagi rangda, biroz namlangan. Tomir urishi daqiqasiga 82 marta. Ovozi manqalangan. Burun bo'shlig'i shilliq pardasi qizargan, tomirlari kengayib shishgan. Burun yo'llarida ko'p miqdorda shilliqsimon suyuqlik bor. Burun oldi bo'shliqlari sohasi barmoq bilan bosilganda og'riqsiz. Burun orqali nafas olish buzilgan. Muhokama uchun savollar: Shikoyatlari, anamnez ma'lumotlari va fizikal ko'ruv natijalarini hisobga olgan holda bemorga tashxis qo'ying	Flipchart Fayl - « Klinik vaziyat»
9.30-10.00	Burun to'sig'i qiyshayishi. Prezentatsiya	Burun to'sig'ining qiyshiqqligining bola organizmiga salbiy ta'sirlari qanday namoyon bo'ladi. Variantlar aytilgan xaxoti talabalar o'qituvchi bilan variantlarni analiz qilib to'g'ri javobni aytishadi. Masalan yuqoridagi variantlardan to'g'rilari Qaysi kasalliklar burun orqali nafas olish kiyinligi bilan kechadi.	RR prezentatsiya (SD disk) Otolaringologiya. Seminar mashg'ulot uchun "Mashg'ulot 1"
10.00-11.00	Poliklinikada yoki klinikada bemorlarni shifokor yoki o'qituvchi nazoratida ko'rish	LOR klinikasida yoki poliklinikada O'qituvchi yordamida tematik bemorlarni kuratsiyasi. Talabani anamnez yig'ishi, klinik tekshirishlar olib borishi, diagnoz qo'yishi, davolashni belgilashi va guruh bilan birgalikda baholash.	
11.00-11.30	Amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirish. 1. Rinoskopiya va burunning anatomiya va fiziologiyasini o'ziga xosligini mustahkamlash. 2. Burunning nafas va hidlov funksiyasini tekshirish	O'qituvchi amaliy ko'nikmani talabalarga qilib ko'rsatadi. Talabalarga amaliy ko'nikma bajarish uchun vaqt beradi. HAR BIR talaba amaliy ko'nikmani o'zi BEMALOL bajarishiga ahamiyat bering. Oldingi va orqa rinoskopiya bajarish va burunning anatomik va fiziologik o'ziga xosligini mustahkamlash. Burunning nafas va xidlov funksiyasini tekshirish Amaliy ko'nikmani o'rgatishni maqsadi talabani ko'nikmani avtomatik bajarishidir.	

Vaqt	Mavzu, o'qitish uslubi	Mazmuni	Materiallar
11.30-11.50	Praktika guruh bilan ishlash	Oldingi , orqa rinoskopiya tekshirish usuli o'tkazish interpretatsiyasi	amaliy ko'nikamani qadamma -qadam o'tkazish faylini ko'ring
11.50-12.30	Tanaffus		
12.30-13.30	Ma'ruza	ma'ruza zalida ma'ruzachi tomonidan ma'ruza o'qiladi.	
13.30-14.00	Guruh bilan klinik vaziyatni muhokama qilishni davom ettirish.	Talabalarining «Burundan nafas olishning qiyinlashishi» sindromi bor bemorlarga (rinitlar, burun to'sig'ining qiyshayishi, sinusitlar va h.k.) berayotgan tibbiy tavsiyalarini bosqichma-bosqich baholash mezonlari. Maqsad; Burundan nafas olish qiyinligi sindromini to'g'ri baholashni talabaga o'rgatish. Vazifa; Talaba burundan nafas olish qiyinligining sababini topishi kerak. Kasallikni xatosiz aniqlab davo choralarini to'g'ri tanlash. Ssenariy ; rollar guruhdagi talabalarga bo'lib beriladi A) otasi B) bemor 13 yosh V) umumiy amaliyot pediatri – kasallik sababini aniqlab davo choralarini tanlaydi. G) ekspertlar-holatni obyektiv baholaydi. O'yin boshlanadi; Xodisa joyi; umumiy pediatri qabulxonasi. Otasi 33 yoshda shofer. Oilada birinchi farzand. Yoshi 13 da muddatida tug'ilgan. O'tkazgan kasalliklari raxit virusli gepatit «B» tez-tez ORVI. Shikoyati; burundan nafas olish qiyinligiga yopiq burun aksa urishga tez-tez sinusit bo'lishiga vaqti vaqti bilan eshitishni pasayishiga bronxial astma xurujlari enurez aqliy rivojlanishni orqada qolishiga prikus бузилишига. O'yinning boshlang'ich fazasi; doktor mening bolamni ko'rib qo'ying. «Bolam burun bilan yaxshi nafas olmaydi». « O'yinning taminlanishi »	Doska oldida muxokama qilish Otorinolarinolog joyi. (Peshona reflektori. Lor ko'rigi uchun steril instrumentlar.quloq voronkalari. burun oynasi. shpatel'.) Tibbiy varaqalar; bolaning rivojlanish tarixi. F №1 12.umumiy qon taxlili.umumiy siydik taxlili blankalari.
14.00-14.20	Mashg'ulotni yakunlash	O'tilgan mavzuni mustahkamlash. Har bir talaba “Bugun men nima yangi narsa o'rgandim”	
15.00 – 18.00	mustaqil tayyorlanish	kafedra tematik xonalarida, bibliotekada yoki simulyatsiya markazida mustaqil shug'ullanish	

Joriy amaliy mashg'ulotni baholash mezonlari

Baho	Joriy amaliy mashg'ulotni baholash mezonlari
------	--

5 «A'lo»	Burunning o'tkir kasalliklari tashxislash savollarga to'liq javob beradi. Tashxisni zamonaviy tasnifga asoslanib to'g'ri qo'ya oladi. Kasallikni tashxislashda klinik va klinik-laborator tekshiruv natijalarini to'g'ri baholagan holda qo'ya oladi. Etiologik va patogenetik asoslarga tayangan holda bemorga davo choralarini belgilay oladi. Shoshilinch holatlarda bemorga birinchi yordamni ko'rsata oladi. Mavzu bo'yicha vaziyatli masalalar va testlarni yecha oladi. Konspekti bor
4 «Yaxshi»	Burunning o'tkir kasalliklari tashxislash Burunning o'tkir kasalliklari tashxislash savollarini tushunib yetadi. Burunning o'tkir kasalliklari simptomlari, klinik shakllari haqida ma'lumotga ega. Burunning o'tkir kasalliklari qaysi kasalliklar kirishini biladi, lekin ularni to'liq bir biridan ajrata olmaydi. Kasallikni davolashda ishlatiladigan dori vositalarini biladi. Shoshilinch yordam prinsiplarini biladi. Muvzu bo'yicha vaziyatli masalalar va testlarni yecha oladi. Konspekti bor
3 «Qoniqarli»	Kasallik to'g'risida yuzaki ma'lumotga ega. Fizikal, laborator, instrumental tekshiruvni og'zaki tushuntirib bera oladi, lekin bajara olmaydi. Burunning o'tkir kasalliklari davolashda ishlatiladigan dori moddalarini sanab bera oladi, lekin standart bo'yicha qanday olib borilishi kerakligini bilmaydi. Testlarni yechishda xatolar kiladi. Vaziyatli masalalarni yecha olmaydi. Konspekti bor.
2 «Qoniqarsiz»	Burunning o'tkir kasalliklari xaqida yuzaki yoki mutloq ma'lumotga ega emas. Klinik va laborator ma'lumotlarni talaba noto'g'ri tushuntirib beradi. Kasallikni standart davolash me'zonlarini bilmaydi. Testlarni va vaziyatli masalalarni yecha olmaydi. Konspekti yo'q.

Amaliy mashg'ulot №3. Burunning surunkali kasalliklari, bolalarda o'ziga xos kechishi, zamonaviy tekshirish usullari, davolash prinsiplari, shoshilinch xolatlarda birinchi yordam ko'rsatish, profilaktika, reabilitatsiya va dispanserizatsiyasi.

Mashg'ulot maqsadi va vazifalari:

Talabalarga burunning surunkali kasalliklarida diagnostik tekshirish usullarini, davolash prinsiplarini, va shoshilinch holatlarda birinchi yordam ko'rsatish, reabilitatsiya va profilaktika choralar bilimlarini o'qitish.

O'quv jarayonini natijasi:

Talaba bilishi zarur:

1. Surunkali rinitlarning etiologiyasi va patogenezi, tasnifini.
2. Surunkali rinitlarning klinik belgilarini
3. Surunkali rinitlarining tekshirish usullarini va umumiy konservativ davolash prinsiplarini
4. Burunning xatarli va xatarsiz o'smalari etiologiyasi, klinik belgilarini, diagnostikasi, dif. diagnostikasi, asoratlarini va davolash prinsiplarini.

Talaba bajara olishi shart:

1. Maqsadga yo'naltirilgan anamnez yig'ish va interpretatsiya.
2. Burunning surunkali kasalliklari bilan kasallangan bemorlarni Rn-logik va instrumental tekshirish usullarini o'tkazishni.
3. Mustaqil ravishda bemorlarda maslahatlar olib borishni va qadamma-qadam oldingi rinoskopiyani
4. Laborator va instrumental tekshirish usullariga tayangan holda kasallikni interpretatsiya qilish
5. O'tkir rinit, burun to'sig'i qiyshayishi va burun chipqonida kasallik asoratlarini oldini olish va profilaktik choralarini ko'rish;

Vaqt	Mavzu, o'qitish uslubi	Mazmuni	Materiallar
8.30-9.00	Talabalarni yo'qlama qilish. O'tilgan darsni qaytarish	Interaktiv o'yin «Miyaga xujumi». Burun bitishi. Burun bitishi sabablarining differensial tashxisi. Bir kishi hamma sabablarni yozib boradi. Keyin har birini alohida muhokama qilinadi. Burun bitishining sabablari ko'p bo'lishi mumkin va o'qituvchida hamma sabablar ro'yhati bo'lishi kerak:	Fayl "Qaytarish"
9.00-9.30	Guruh bilan klinik vaziyatni muxokama qilish yoki vaziyatli masala yechish	Erkak kishi sizning huzuringizga ikki yildan beri burun bitishiga, ba'zida burundan qon ketishiga, burundan shilliq ajralmalar kelishiga va og'iz qurishiga shikoyat qilib keldi. 1-savol. Dif.tashxis qanday? (talabalar istalgan etiologiyali rinitga, jumladan, vazomotor, allergik, virusli yoki bakterial, burun travmasi, qon muammolariga ishora qilishlari mumkin) 1 savol. Sizni qaysi qo'shimcha ma'lumotlar qiziqtiradi? (hid bilishning pasayishi, hid bilishning o'zgarishi, tumovning "mavsumiyligi, yiringli ajralmalar va h.k.zolar. mavjudmi?) 2 savol burun travmalari bo'lganmi, sport bilan shug'illanadimi? Qo'shimcha ma'lumotlar. Yigit unda mavsumiylik yo'qligini burun doimo bitib turishini, boks bilan shug'ullanishini va tez-tez yuziga zarbalar olishini, yiringli ajralmalar shamollash va qish vaqtida bo'lishini aytdi. Hid bilish buzilmagan. 3-savol. Ushbu bemorni ko'rigi nimalardan iborat bo'lishi kerak? (burun- shillik, burun to'sig'ini ko'zdan kechirish, burun palpatsiyasi, sinuslar proeksiyasi, tomoq va quloqlarni ko'zdan kechirish) Qo'shimcha ma'lumot. Ko'ruvda o'ng burun katagini deyarli butunlay yopuvchi, burun to'sig'ini qiyshayishini aniqladingiz. Burun shilliq qavati odatdagi tusda, giperemiya alomatlari yo'q. Quloq va tomoq o'zgarishsiz. Sinuslar proeksiyasi og'riqsiz. Shunday qilib, burun bitishiga burun to'sig'ining qiyshayishi asosiy sabab bo'lgan. Og'iz qurishiga kasal havoni asosiy qismini og'iz orqali olishi sabab bo'lgan. Baholash varaqlarining yozilishi va muxokama	Flipchart Fayl - « Klinik vaziyat» Vazomotor rinit Doska oldida muxokama qilish Otorinolaringolog joyi. (Peshona reflektori. Lor ko'rigi uchun steril instrumentlar.quloq voronkalari. burun oynasi. shpatel'.) Tibbiy varaqalar; bolaning rivojlanish tarixi. F №112.umumiy qon taxlili.umumiy siydik taxlili blankalari.
9.30-10.00	Prezentatsiya Surunkali rinitlar	Rinit bilan og'rigan bemorlarni tekshirish. Oldindan flipchart tayyorlab qo'yish yoki doskada allergik va boshka rinitlar sabablarini farqlarini yozish mumkin. Jadvalga qarang. Masalan, allergik (mavsumiy, yillik, kasbiy), infeksiyon (o'tkir yoki surunkali), noyob turlari (beta-blokatorlar, aspirin,	RR prezentatsiya (SD disk) Otolaringologiya. Seminar mashg'ulot uchun fayl "Mashg'ulot 2"

Vaqt	Mavzu, o'qitish uslubi	Mazmuni	Materiallar
		KOK, NPVS, mahalliy tomirlarni toraytiruvchi preparatlarni qabul qilish bilan bog'lik, atrofik, autoimmun, neoplastik). Ba'zida rinitlar (mukovitsidoz, SQB, RA)ni, OITSni, gormonal kasalliklar (gipotireoz)ni, homiladorlikni, keksa erkaklar tumovini va b.q.ni yuzaga kelishi bilan bog'lik bo'lishi mumkin. Rinitlar sababini muhokama qilib bo'lgandan keyin, o'ziga xos simptomatikani muhokama qilish (Masalan, allergik mavsumiy rinitlarda - asosan aksa urish, qichishish va rinoreya shilliq va suvli ajralmalar bilan, yillik rinitda - burun bitishi va postnazal katar).	
10.00-11.00	Poliklinikada yoki klinikada bemorlarni shifokor yoki uqituvchi nazoratida ko'rish	LOR klinikasida yoki poliklinikada O'qituvchi yordamida tematik bemorlarni kuratsiyasi. Bemorlarni kuratsiya qilish. Talabaning anamnez yigishi, klinik tekshirishlar olib borishi, diagnoz qo'yishi, davolashni belgilashi va guruh bilan birgalikda baxolash. Rinitlar bilan og'rigan bemorlarni savol-javob qilish 1. Simptomlarning boshlanishi, davomiyligi va kuchayishi. 2. Simptomlarning mavsum, joy, kun vaqti va aktivlik bilan bog'likdigi. 3. Allergenlar bilan kontakt, va simptomlarni kuchaytiruvchi (sovuq xavo, achchiq taomlarni iste'mol qilish, hidlar, xavo harorati va bosimining o'zgarishi kabi) boshka faktorlar. 4. Burun bitishi va obstruksiyasi simptomlari haqida so'rang: ko'z usti va osti sohasida bosim, ko'z, burun va halqum qichishi, aksa urish, yorug'lik, burun va postnazal ajralmalarining konsistentsiyasi va mikdori, doimo tomoqni tozalab turushga muhtojlik sezish. 5. So'rang. Bemor og'iz orqali nafas oladimi, eshitish, hid sezish o'zgardimi, uxlaganda xurрак otadimi, charchoqlik. 6. O'z bilganicha davolanganmi, ayniqsa, tomirni toraytiruvchi dorilarni uzoq ishlatish. 7. Allergiya va astmaning oilaviy anamnezi. Rinit bilan og'rigan bemorlarni ko'rikdan o'tkazish	Otorinolaringolog joyi. (Peshona reflektori. Lor ko'rigi uchun steril instrumentlar.quloq voronkalari. burun oynasi. shpatel'.) Tibbiy varaqalar; bolaning rivojlanish tarixi. F №12.umumiy qon taxlili.umumiy siydik taxlili blankalari.
11.00-11.30	Amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirish. Burundan yot jismlarni olib tashlash	O'qituvchi amaliy ko'nikmani talabalarga qilib ko'rsatadi. Talabalarga amaliy ko'nikma bajarish uchun vaqt beradi. HAR BIR talaba amaliy ko'nikmani o'zi BEMALOL bajarishiga ahamiyat bering. Burundan yot jismlarni olib tashlash	
11.30-11.50	Praktika gurux bilan	1. Yot jismni olib tashlash, ko'p hollarda burunni o'sha tomonidan qoqib tashlash bilan bo'ladi. Yot	amaliy ko'nikamani

Vaqt	Mavzu, o'qitish uslubi	Mazmuni	Materiallar
	ishlash	jismni ichkariga xoanalar-tomonga tiqib yuborishni oldini olish maqsadida pintset bilan bajariladigan manipulyatsiyalar qat'iyan man etiladi. 2. Vrach bolani yaxshi fiksatsiyasiga ishonch hosil qilganidan keyin, eng yaxshisi o'tmas kryuchokdan foydalangan ma'qul. u kryuchokni yot jism usti va orqa tomonidan kirg'izadi. 3. So'ngra kryuchok burun bo'shlig'ini pastki devori bo'ylab, yot jism bilan birgalikda tashqariga chiqariladi. 4. Yot jism olib tashlanganidan keyin burunga dezinfektsiyalovchi tomchilar buyuriladi. 5. Yot jism burun ichkarirog'ida joylashaganda uni ehtiyotsizlik oqibatida burun-halqumga itarib yuborilish va aspiratsiya bo'lish havfi mavjud. Bu holatlarda yot jismni o'tirgan holatda olib tashlashga harakat qilish va agar u halqumda bo'lsa, uni olib tashlashga tayyor turish tavsiya etiladi. 6. Bezovta bolalarda yot jismlar o'tkir uchli bo'lganda ularni umumiy og'riqsizlantirish ostida olish yaxshiroq.	qadamma -qadam o'tkazish faylini ko'ring Fayl nafas olish dif diagnostikasi
11.50-12.30	Tanaffus		
12.30-13.30	Ma'ruza	ma'ruza zalida ma'ruzachi tomonidan ma'ruza o'qiladi.	
13.30-14.00	Guruh bilan klinik vaziyatni muxokama qilishnmi davom ettirish.	Surunkali rinit Burun shillik kavatining surunkali yallig'lanishi aksa urish, burun bitishi va rinoreya kabi klinik belgilarning paydo bo'lishiga olib keladi. Bu narsa ko'pchilik odamlarda allergenlarni ingalyatsiyasi bilan bog'liq. Rinitlarning boshqa asosiy sababi - noallergik rinit, boshqacha nomi vazomotor. Allergik rinit • Aksa urish, burun bitishi, burundan toza ajralmalar kelishi va/yoki ko'z qichishi. • Mavsumiylik (bahor va/yoki kuz) yoki yillik • Antigistaminlardan keyingi effekt • Odatda rentgenologik va laborator testlar kerak emas • Vazomotor rinit • Aksa urish, burun bitishi va yoki burundan toza ajralmalar kelishi • Simptomlarni haroratning va namlikning o'zgarishi yuzaga keltiradi • Antigistaminlardan foyda yo'q • Odatda rentgenologik va laborator testlar kerak emas Vazomotor rinit - bu immun bo'lmagan,	Doska oldida muhokama qilish

Vaqt	Mavzu, o'qitish uslubi	Mazmuni	Materiallar
		haroratning va namlikning o'zgarishi, atrof muhitning iffloslanishi, tutun, qurum, parlanish, tamaki tutuni kabi fizik stimullarga gipersezigirligi bo'lgan avtonom Rinitlarning uchinchi turi - tomir toraytiruvchi tomchilar va spreylarni doimiy qo'llash bilan bog'lik medikamentoz rinitlar. Anamnez yiqqanda rinitlarni tashxisi uchun yuqorida ko'rsatilgan simptomlarga, burundan chiqadigan ajralmalarga ahamiyat beriladi. Profuz suvli - allergik turdagi, yiringli, yomon hidli - sababi infeksiyon. Ajralmalar chikadigan holat: bu spontan rinoreya bo'lganmi yoki ajralmalar burun qoqqanda paydo bo'lganmi ajralmalar tomoqqa o'tdimi. Agar profuz suvli ajralmalar holatni o'zgartirganda yoki mashqlarda paydo bo'lsa, Teu serebrospinal suyuqlikning oqishi bo'lishi mumkin! Burun bitishi bir xilda allergik rinitlarda ham, yallig'lanishli rinitlarda ham yotgan holatda, ayniqsa, kechki asoratlanadi. Shilliq bezlari normada kuniga 1 litrga yaqin shilliq ishlab chiqaradi. Bu shilliq doimo sinus kiprikchalari orqali burun bo'shlig'iga, halqumga chiqariladi va yutib yuboriladi.	
14.00-14.20	Mashg'ulotni yakunlash	O'tilgan mavzuni mustaxkamlash. Har bir talaba "Bugun men nima yangi narsa urgandim"	
15.00 – 18.00	mustaqil tayyorlanish	kafedra tematik xonalarida, bibliotekada yoki simulyatsiya markazida mustaqil shug'ullanish	

Joriy amaliy mashg'ulotni baholash mezonlari

baho	Joriy amaliy mashg'ulotni baholash mezonlari
5 «A'lo»	Burunning surunkali kasalliklari tashxislash savollarga to'liq javob beradi. Tashxisni zamonaviy tasnifga asoslanib to'g'ri qo'ya oladi. Kasallikni tashxislashda klinik va klinik-laborator tekshiruv natijalarini to'g'ri baholagan holda qo'ya oladi. Etiologik va patogenetik asoslarga tayangan holda bemorga davo choralarini belgilay oladi. Shoshilinch xolatlarda bemorga birinchi yordamni kursataoladi. Mavzu bo'yicha vaziyatli masalalar va testlarni yecha oladi. Konspekti bor
4 «Yaxshi»	Burunning surunkali kasalliklari tashxislash Burunning surunkali kasalliklari tashxislash savollarini tushunib yetadi. Burunning surunkali kasalliklari simptomlari, klinik shakllari haqida ma'lumotga ega. Burunning surunkali kasalliklari qaysi kasalliklar kirishini biladi, lekin ularni to'liq bir biridan ajrata olmaydi. Kasallikni davolashda ishlatiladigan dori vositalarini biladi. Shoshilinch yordam prinsiplarini biladi. Mavzu bo'yicha vaziyatli masalalar va testlarni yecha oladi. Konspekti bor

3 «Qoniqarli»	Kasallik to'g'risida yuzaki ma'lumotga ega. Fizikal, laborator, instrumental tekshiruvni og'zaki tushuntirib bera oladi, lekin bajara olmaydi. Burunning surunkali kasalliklari davolashda ishlatiladigan dori moddalarini sanab Bera oladi, lekin standart buyicha qanday olib borilishi kerakligini bilmaydi. Testlarni yechishda xatolar kiladi. Vaziyatli masalalarni yecha olmaydi. Konspekti bor.
2 «Qoniqarsiz»	Burunning surunkali kasalliklari haqida yuzaki yoki mutloq ma'lumotga ega emas. Klinik va laborator ma'lumotlarni talaba noto'g'ri tushuntirib beradi. Kasallikni standart davolash me'zonlarini bilmaydi. Testlarni va vaziyatli masalalarni yecha olmaydi. Konspekti yo'q.

Amaliy mashg'ulot 4. Sinusitlar va burun o'smalari, zamonaviy tekshirish usullari, davolash prinsiplari, shoshilinch xolatlarda birinchi yordam ko'rsatish, profilaktika, reabilitatsiya va dispanserizatsiyasi.

Mashg'ulot maqsadi va vazifalari:

Talabalarga Sinusitlar va burun o'smalari, bolalarda o'ziga xos kechishi, zamonaviy tekshirish usullari, davolash prinsiplari, shoshilinch xolatlarda birinchi yordam ko'rsatish, profilaktika, reabilitatsiya va dispanserizatsiyasi bilimlarini o'qitish.

O'quv jarayonini natijasi:

Talaba bilishi zarur:

1. Sinusitlar etiologiyasi va patogenezini, tasnifini.
2. Sinusitlar klinik belgilarini
3. Sinusitlarining tekshirish usullarini va umumiy konservativ davolash prinsiplarini

Talaba bajara olishi shart:

1. Maqsadga yo'naltirilgan anamnez yig'ish va interpretatsiya.
2. Sinusitlar bilan kasallangan bemorlarni Rn-logik va instrumental tekshirish usullarini o'tkazishni.
3. Mustaqil ravishda bemorlarda maslaxatlar olib borishni va qadamma-qadam oldingi rinoskopiyaning
4. Laborator va instrumental tekshirish usullariga tayangan xolda kasallikni interpretatsiya qilish
5. O'tkir rinit, burun to'sig'i qiyshayishi va burun chipqonida kasallik asoratlarini oldini olish va profilaktik choralarini kurish;

Vaqt	Mavzu, o'qitish uslubi	Mazmuni	Materiallar
8.30-9.00	Talabalarni yo'qlama qilish. O'tilgan darsni qaytarish	Interaktiv o'yin «Miyaga xujumi». Surunkali rinitlaning differentsial tashxisi. Bir kishi hamma sabablarni yozib boradi. Keyin har birini alohida muhokama qilinadi. Vazomotor rinitlarning sabablari ko'p bo'lishi mumkin va o'qituvchida hamma sabablar ro'yhati bo'lishi kerak.	Fayl "Qaytarish"
9.00-9.30	Amaliy mashg'ulotni vaziyatli masalalar, klinik tekshirishlar, rentgen va KT diagnostikasi, mulyajlar,	Sinusitlar bilan og'rigan bemorlar kuratsiyasi. Rentgen tasvirlar muvokamasi. Talabalarga kuratsiya uchun bemorlar bo'lib beriladi. 2-3 ta sinusitlar bilan og'rigan bemorlar rentgen tasvirlar -yondosh bo'shliqlar to'qlashishini ishlatish. Bolalardagi o'ziga xosliklar. Sinusit simptomlari ko'pincha rinit simptomlari ustiga qo'shilishi sababli, ularni birgalikda muhokama qilgan ma'qul.	Otorinolarologoy joyi. (Peshona reflektori. Lor kurigi uchun steril instrumentlar. quloq voronkalari. burun oynasi. shpatel) Tibbiy varaqalar; bolaning rivojlanish tarixi. F №12.umumiy

Vaqt	Mavzu, o'qitish uslubi	Mazmuni	Materiallar
	tablitsalar yordamida o'zlashtirish	Bunga yana bosh og'rig'i, yuz og'rig'i, hid sezish va ta'm bilishning pasayishi, holsizlik, burundan yiring xarakterli ajralmalar kelishi qo'shilishi mumkin. Talabalarni o'qitayotganda rinitning simptomlariga va qachon biz sinusitlarni to'g'risida gumon qilishimizga urg'u berish kerak. O'tkir va surunkali sinusitlarni davolash (antibakterial terapiyaning davomiyligi - amoksitsillin, amoksiklav, azitromitsin va biseptol bilan o'tkir 2 hafta, surunkalida 6 haftagacha) dagi farq. Sinusitlardan kelib chiqishi mumkin bo'lgan asoratlari (ko'z infeksiyalari, absesslari, meningit, kavernoza sinusning trombozi) ni muhokama qilish. Sinusitlar bilan og'rig'an 2-3 ta bemor taklif qilinadi va ularni misolida quyidagi mavzu muhokama qilinadi. Ko'ruv sinuslar proektsiyasi palpatsiyasini (shu yerda qaysi joyni palpatsiya qilish eslab qolish maqsadida sinuslar lokalizatsiyasi - rentgen tasvirlarini olib kelgan ma'qul) o'z ichiga olishi kerak. Albatta, III, IV va VI bosh miya nervlar funksiyasini baholash kerak. Bu juft nervlar kuchsizligida sinus va ko'z o'tkirligining protsessga qo'shilishi mumkin. O'tkir sinusit kriteriyalari VAQT o'tkir - 4 haftagacha O'tkir osti- 4- 12 hafta Kuchayishning qaytalama epizodlari yiliga 4 va undan ko'p. Har biri 7 va undan ortiq kun davom etadi. KLINIK FAKTORLAR Katta: Yuz og'rig'i/bosim Bitish/yuz sohasidagi to'liqlik Burun bitishi ajralma/hid bilishning pasayishi Kichik: Bosh og'rig'i	qon taxlili.umumiy siydik taxlili blankalari.
9.30-10.00	RR prezentatsiyasi («Sinusitlar»).	Bolalardagi o'ziga xosliklar.	RR prezentatsiya (SD disk) Otolaringologiya. Seminar mashg'ulot uchun fayl "Mashg'ulot 3"
10.00-11.00	Poliklinikada yoki klinikada bemorlarni shifokor yoki o'qituvchi nazoratida ko'rish	LOR klinikasida yoki poliklinikada O'qituvchi yordamida tematik bemorlarni kuratsiyasi. Bemorlarni kuratsiya qilish. Talabaning anamnez yigishi, klinik tekshirishlar olib borishi, diagnoz quyishi, davolashni belgilashi va gurux bilan birgalikda baxolash. Burun yondosh bo'shliqlarini tekshirish uslubi Yakuniy tashxisni qo'yish uchun tahlilning bir qator qo'shimcha uslublari talab etiladi; rentgenologik tahlillar, kompyuter tomografiyasi, magnit-rezonans tomografiyasi. Yondosh bo'shliqlarning rentgen tasviri birinchi navbatda bo'shliqlar, ularning hajmi va kattaligi haqida xulosa chiqarishga imkon beradi. Bo'linmalar qanchalik ko'p bo'lsa, yorqin tasvirlar yoki ularning pnevmatizatsiya (havo) deb nomlanadigan tasviri shunchalik yorqin bo'ladi. Patologik jarayon (sirroz yoki yiringli eksudat) sababli pnevmatizatsiyaning buzilishi havodan zichroq muhit ushlab qolishi natijasida rentgenogrammada to'q rangdagi tasvir orqali namoyon bo'ladi. Bunga asoslanib ham bo'linmalarining eksudatsiyasini va ba'zi hollarda shilliq qavatning qalinlashgani yoki poliplarni ham aniqlasa bo'ladi. Rentgenogramma tahlilida bir tarafni ikkinchi taraf bilan	

Vaqt	Mavzu, o'qitish uslubi	Mazmuni	Materiallar
		solishtirganda bo'linmalar kattaligini inobatga olish kerak. Masalan, hajm jihatdan kichkina bo'linma me'yorda ham havosi kamroq, kattasi esa hatto patologik holatda ham kamroq soylashgan bo'lib ko'rinishi mumkin. Rentgen tasvirlarining tez-tez almashinuvi, unda soyaning yo'qolishi yoki bir necha kun davomida qaytadan paydo bo'lishi allergik jarayonga xosdir.	
11.00-11.30	Amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirish.	O'qituvchi amaliy ko'nikmani talabalarga qilib ko'rsatadi. Talabalarga amaliy ko'nikma bajarish uchun vaqt beradi. HAR BIR talaba amaliy ko'nikmani o'zi BEMALOL bajarishiga ahamiyat bering. Burun yondosh bo'shliqlarini tekshirish uslubi	Amaliy ko'nikamani qadamma -qadam o'tkazish faylini ko'ring
11.300-11.50	Praktika gurux bilan ishlash	Burundan qon ketishlar. Epistaksis. Individual doklad. Patogenez. □ Qon burunga ichki va tashqi arteriyalar orqali boradi. Burun to'sig'ining oldingi qismida burunni barmoq bilan kavlanganda va to'g'ri o'tmas travma orqali oson shikastlanishi mumkin bo'lgan Kisselbax (Littl) zonasini deb ataladigan qon-tomirlar chigali mavjud. Qon ketishi burun shilliq qavatining travmalar, yallig'lanish va neoplazmalar oqibatida jarohatlanishi orqali yuzaga keladi. Gemofiliya bilan og'rigan bemorlarda Villebrandt kasalligi (kon ivishining tug'ma patologiyasi) bilan og'rigan bemorlarga nisbatan burundan qon ketishi kam hollarda, travma paytida uchraydi. Anamnezni yig'ish. □ Qon ketishining boshlanishi va davomiyligi. Qanchalik ko'p qaytariladi va qon yo'qotish miqdori. Burundan ajralmalarning ko'payganligi kuzatilganmi yoki yo'qligini so'rang. Rangini, xarakterini va miqdorini aniqlang. Burun bitishi va uning xarakteri (bir tomonlama va ikkitomonlama, o'tkir va surunkali) mavjudmi? □ Antikoagulyantlarni asosiy kasallikni davolash uchun ishlatish. □ Oldingi epizodlar, ularning soni va davolash □ Qon patologiyasi bormi? Gipertenziya bormi? Ko'ruv. □ AQB va puls □ Burun to'sig'i va burun shilliq qavatini ko'rish maqsadida burun yo'llaridan qonni ignasiz shprints yoki grusha yordamida tortib oling. □ Qon ketish joyini aniqlang. Davolash. Qon ketishni to'xtatish uchun quyidagi tavsiyalardan foydalaning	Flipchart Fayl - « Klinik vaziyat» Burundan qon ketish Doska oldida muxokama qilish

Vaqt	Mavzu, o'qitish uslubi	Mazmuni	Materiallar
11.50-12.30	Tanaffus		
12.30-13.30	Ma'ruza	ma'ruza zalida ma'ruzachi tomonidan ma'ruza o'qiladi.	
13.30-14.00	Guruh bilan klinik vaziyatni muxokama qilish davom ettirish.	□ Talaba uchun ma'lumot: Bemor 40 yosh chap burun bo'shlig'ida tez-tez qon oqishiga shikoyat qiladi. Qon oqishi kam miqdorda va o'z holicha to'xtaydi. Boshqa organ va sistemalardan shikoyati yo'q. 3 oy oldin profilaktik ko'ruv o'tkazgan. □ Ko'ruvda burun to'sig'i tog'ay qismining chap tomonida yumaloq to'q – qizil rangdagi ingichka oyoqchali hosila joylashgan. Hosilaga yengil tegilganda qon oqadi, chap burun qanotiga qisilganda qon to'xtaydi. □ Muhokama uchun savollar: Shikoyatlari, anamnez ma'lumotlari va fizikal ko'ruv natijalarini hisobga olgan holda bemorga tashhis qo'ying	Doska oldida muxokama qilish Doska oldida mustaxkamlash Otorinolaringolog joyi. (Peshona reflektori. Lor kurigi uchun steril instrumentlar. quloq voronkalari. burun oynasi. shpatel) Tibbiy varaqalar; bolaning rivojlanish tarixi. F №12. umumiy qon taxlili. umumiy siydik taxlili blankalari.
14.00-14.20	Mashg'ulotni yakunlash	O'tilgan mavzuni mustaxkamlash. Har bir talaba "Bugun men nima yangi narsa urgandim"	
15.00 – 18.00	mustaqil tayerlanish	kafedra tematik xonalarida, bibliotekada yoki simulyatsiya markazida mustaqil shug'ullanish	

Joriy amaliy mashg'ulotni baxolash mezonlari

baho	Joriy amaliy mashg'ulotni baxolash mezonlari
5 «A'lo»	Sinusitlar va burun o'smalari tashxislash savollarga to'liq javob beradi. Tashxisni zamonaviy tasnifga asoslanib to'g'ri qo'ya oladi. Kasallikni tashxislashda klinik va klinik-laborator tekshiruv natijalarini to'g'ri baxolagan xolda ko'ya oladi. Etiologik va patogenetik asoslarga tayangan xolda bemorga davo choralarini belgilay oladi. Shoshilinch xolatlarda bemorga birinchi yordamni kursataoladi. Mavzu buyicha vaziyatli masalalar va testlarni yecha oladi. Konspekti bor
4 «Yaxshi»	Sinusitlar va burun o'smalari tashxislash savollarini tushunib yetadi. Sinusitlar va burun o'smalari simptomlari, klinik shakllari xaqida ma'lumotga ega. Sinusitlar va burun o'smalari qaysi kasalliklar kirishini biladi, lekin ularni to'liq bir bidadan ajrata olmaydi. Kasallikni davolashda ishlatiladigan dori vositalarini biladi. Shoshilinch yordam prinsiplarini biladi. Mavzu bo'yicha vaziyatli masalalar va testlarni yecha oladi. Konspekti bor
3 «Qoniqarli»	Kasallik to'g'risida yuzaki ma'lumotga ega. Fizikal, laborator, instrumental tekshiruvni og'zaki tushuntirib bera oladi, lekin bajara olmaydi. Sinusitlar va burun o'smalari davolamda ishlatiladigan dori moddalarini sanab Bera oladi, lekin standart bo'yicha kanda y olib borilishi kerakligini bilmaydi. Testlarni yechishda xatolar qiladi. Vaziyatli masalalarni yecha olmaydi. Konspekti bor.
2 «Qoniqarsiz»	Sinusitlar va burun o'smalari haqida yuzaki yoki mutloq ma'lumotga ega emas. Klinik va laborator ma'lumotlarni talaba notug'ri tushuntirib beradi. Kasallikni standart davolosh me'zonlarini bilmaydi. Testlarni va vaziyatli masalalarni yecha olmaydi. Konspekti yo'q.

Amaliy mashg'ulot №5. Xalkumning klinik anatomik va fiziologik o'ziga xosligi, zamonaviy tekshirish usullari.

Mashg'ulot maqsadi va vazifalari:

Kirish. Xalkumning klinik anatomik va fiziologik o'ziga xosligi, zamonaviy tekshirish usullari.

O'quv jarayonini natijasi:

Talaba bilishi zarur:

1. Xalkumning klinik anatomiyasini
2. Xalkumning klinik fiziologiyasini
3. Xalkumni zamonaviy tekshirish usullari.

Talaba bajara olishi shart:

1. Maqsadga yo'naltirilgan anamnez yig'ish va interpretatsiya.
2. Xalkumning o'tkir kasalliklari bilan kasallangan bemorlarni instrumental tekshirish usullarini o'tkazishni.
3. Mustaqil ravishda bemorlarda maslaxatlar olib borishni va qadamma-qadam faringoskopiyaning o'tqazish.
4. Laborator va instrumental tekshirish usullariga tayangan holda kasallikni interpretatsiya qilish

Vaqt	Mavzu, o'qitish uslubi	Mazmuni	Materiallar
8.30-9.00	Talabalarni yo'qlama qilish. O'tilgan darsni qaytarish	Interaktiv usul «Kuchsiz halqa».	Fayl "Qaytarish"
9.00-9.30	Guruh bilan klinik vaziyatni muhokama qilish yoki vaziyatli masala yechish	Bemor onasi bola yutinishga qiynalishiga, ko'krakdan bosh torta boshlaganiga. Bu belgilar bemor onasi bola uch kun oldin zaxda ko'p o'ynagani bilan bog'laydi. Ko'ruvda: Og'iz ochilishi erkin og'riqsiz. Xalkum orqa devori qizargan, shishgan. Tomir urishi daqiqasiga 92marta. Ovozi o'zgarmagan. Burun bo'shlig'i shilliq pardasi och pushti rangda, shishmagan. Burun yo'llari toza. Burun oldi bo'shliqlari sohasi bosilganda bola bezovtalanmaydi. Muhokama uchun savollar: Shikoyatlari, anamnez ma'lumotlari va fizikal ko'ruv natijalarini hisobga olgan holda bemorga tashhis qo'yng.	Flipchart Fayl - « Klinik vaziyat»
9.30-10.00	Prezentatsiya bolalarda sinusitlar.	Bolalarda o'tkir faringitda bo'lishi mumkin bo'lgan o'zgarishlar va ularning bola organiziga zarari. Variantlar aytilgan xaxoti talabalar o'qituvchi bilan variantlarni analiz qilib tug'ri javobni aytishadi. Masalan yuqoridagi variantlardan tug'rilar	RR prezentatsiya (SD disk) Otolaringologiya. Seminar manbai–Palchun 28 bet,
10.00-11.00	Poliklinikada yoki klinikada bemorlarni shifokor yoki o'qituvchi nazoratida ko'rish	LOR klinikasida yoki poliklinikada O'qituvchi yordamida tematik bemorlarni kuratsiyasi. Bemorlarni kuratsiya qilish. Talabaning anamnez yig'ishi, klinik tekshirishlar olib borishi, diagnoz qo'yishi, davolashni belgilashi va guruh bilan birgalikda baxolash.	

Vaqt	Mavzu, o'qitish uslubi	Mazmuni	Materiallar
11.00-11.50	Amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirish. 1.Rinoskopiya va burunning anatomiya va fiziologiyasini o'ziga xosligini muhokama qilish. 2. Burun yondosh bo'shliqlarini tekshirish	O'qituvchi amaliy ko'nikmani talabalarga qilib ko'rsatadi. Talabalarga amaliy ko'nikma bajarish uchun vaqt beradi. HAR BIR talaba amaliy ko'nikmani o'zi BEMALOL bajarishiga ahamiyat bering. Oldingi va orqa rinoskopiyanı bajarish va burun yondosh bo'shliqlari anatomik va fiziologik o'ziga xosligini muhokama qilish. Burun yondosh bo'shliqlarini tekshirish. Amaliy ko'nikmani o'rgatishni maqsadi talabaniing ko'nikmani avtomatik bajarishidadir.	
11.50-12.50	Tanaffus		
12.50-13.30	Guruh bilan klinik vaziyatni muhokama qilishni davom ettirish.	Talabalarning «Burun tug'ma nuqsonlarini borbemorlarga (xaona atreziyasi, buri tanglay, kuyoncha labvah.k.) berayotgan tibbiy tavsiyalarini bosqichma-bosqich baholash mezonlari.	Doska oldida taktika bilan muhokama qilish.
13.30-14.00	Praktika	MSKT, KT, MRT, 3D rentgen va Rentgen snimkalarini Interpretatsiya qilish.	Amaliyot fayli
14.00 – 14.50	Guruhda ishlash	Klinik fikirlash varog'ini to'ldirish, kasallik belgilarini differtsiyal-diagnostika qilish, xaona atreziyasi, buri tanglay, quyoncha lab	Sinusit dif diagnostika fayli
14.50-15.20	Mashg'ulotni yakunlash	O'tilgan darsni muhokama qilish. Har bir talaba “Bugun men qanday yangilikni bildim” degan savolga javob beradi.	

Joriy amaliy mashg'ulotni baxolash mezonlari

Baholash	Joriy amaliy mashg'ulotni baxolash mezonlari
